

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2026-yil 2-son)



IJTIMOIIY FANLAR
SOCIAL STUDIES

**IKKINCHI JAHON URUSHI FRONT MATBUOTI VA JURNALISTLARI
TARIXIGA DOIR**

<https://doi.org/10.70728/a.series.v08.i02.110>

Raimjonov Ziyoxiddin Raxmonjon o‘g‘li

Qo‘qon universiteti Andijon filiali

“Tarix va ijtimoiy fanlar” kafedrası o‘qituvchisi

raimjonovziyokhiddin@gmail.com

+998990335965

Annotatsiya. Mazkur maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida front matbuoti va harbiy jurnalistlar faoliyati tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. O‘zbek tilida nashr etilgan front gazetalarining jangovar ruhni mustahkamlashdagi o‘rni, ularning tashkiliy tuzilmasi hamda muxbirlar faoliyati yoritiladi. Shuningdek, matbuotning targ‘ibot vositasi sifatidagi ahamiyati, front va front orti o‘rtasidagi ma‘naviy bog‘liqlikni ta‘minlashdagi roli ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Ikkinchi jahon urushi, front matbuoti, harbiy jurnalistika, o‘zbek tilidagi gazetalar, targ‘ibot, vatanparvarlik.

Аннотация. В статье анализируется деятельность фронтовой печати и военных журналистов в годы Вторая мировая война. Освещается роль узбекоязычных фронтовых газет в укреплении боевого духа солдат, их организационная структура и работа военных корреспондентов. Рассматривается значение печати как инструмента государственной пропаганды и средства духовной связи между фронтом и тылом. Материал основан на исторических источниках и научных исследованиях.

Ключевые слова: Вторая мировая война, фронтовая печать, военная журналистика, газеты на узбекском языке, пропаганда, патриотизм.

Abstract. This article examines the activities of front-line press and military journalists during World War II based on historical sources. It highlights the role of Uzbek-language front newspapers in strengthening soldiers’ morale, their organizational structure, and the work of war correspondents. The study also analyzes the press as a tool of state propaganda and as a means of maintaining spiritual unity between the front and the home front.

Keywords: World War II, front press, military journalism, Uzbek newspapers, propaganda, patriotism.

KIRISH. Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan buyuk g‘alabaga O‘zbekiston halqi ham munosib hissa qo‘shgan. Bu urushda ishtirok etgan, halok bo‘lgan,

mehnat fronti ortida matonat ko‘rsatgan faxriylar nomini e‘zozlash, ulug‘lash va xotirlash umuminsoniy o‘lmas qadriyatdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev “Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g‘alabaning 75 yilligini munosib nishonlash to‘g‘risida”gi Qarorida shunday ta‘kidlab o‘tadi: “El-yurtimizning urush yillarida ko‘rsatgan mardlik va qahramonligi biz uchun ulkan jasorat maktabi, g‘urur-iftixor manbai bo‘lib, vaqt o‘tgani sayin bu o‘lmas qadriyatlarning ahamiyati tobora ortib bormoqda”. Ikkinchi jahon urushi tarixini o‘rganar ekanmiz, frontdagi harbiylar bilan bir qatorda, harbiy-jurnalistlarning ham faoliyatini alohida o‘rganishimiz zarurdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Sovet davrida o‘zbek harbiy jurnalistikasi va frontlarda chop etilgan o‘zbek tilidagi gazetalar va ularda faoliyat olib borgan jurnalistlar faoliyati alohida mavzu sifatida o‘rganilmagan. Biroq o‘zbek jurnalistikasi tarixini o‘rgangan olimlar – T.Ernazarov va A.Akbarovlarning kitobida[2], shuningdek 1983-yilda nashr qilingan uch jilddan iborat “Узбекская ССР в годы Великой Отечественной войны (1941–1945 гг.)”[3] fundamental kitoblarida mavzuga oid kerakli ma‘lumotlar bor. Mustaqillik yillarida mavzu tarix fanlari doktori, professor Rustambek Shamsutdinov tomonidan har tomonlama chuqur o‘rganilgan. Olimning besh kitobdan iborat “Ikkinchi jahon urushi va front gazetolari” kitobi va qator maqolalarida[4,5,6,7,8,9,10] mavzuga oid behisob ma‘lumotlar ilk bor keng ilmiy iste‘molga kiritilgan.

Maqolada tarixiy-tadqiqiy yondashuv, adabiyotlar sharhi va manbalar tahliliga asoslangan.

NATIJALAR

Urushdan oldin O‘zbekistonda 6 million 551 mingdan ortiq aholi yashagan bo‘lsa, shundan 1 million 950 ming 700 nafar yurtdoshimiz janglarda bevosita ishtirok etgan. Ayovsiz urushdan omon qaytish nasib etgan 1 million 54 ming 298 nafar yurtdoshimizning 870 ming 942 nafari yaralangan va nogiron bo‘lgan. Urushdan 896 ming 402 nafar yurtdoshimiz qaytmagan. Ulardan 538 ming 366 nafari jang maydonlarida halok bo‘lganini, 150 ming nafari dushmanga asir tushganini, 50 ming nafari kontsentratsion lagerlardan omon chiqmaganini, 158 ming 36 nafari bedarak ketgan[1.291-294]. Front orti hisoblangan yurtimiz dalalarida, zavod-fabrikalarida asosan ayollar, keksalar, bolalar kechani kecha, kunduzni kunduz demay fidoyilik ko‘rsatib mehnat qilganliklarini hisobga oladigan bo‘lsak, bizning xalqimiz fashizm balosiga qarshi kurashga qanday ulkan hissa qo‘shganligini tasavvur qilish qiyin emas.

O‘sha olovli yillarda O‘zbekistonda yetti yoshdan yetmish yoshgacha butun xalqimiz “Hamma narsa front uchun, hamma narsa g‘alaba uchun!” deb yashadi, orom va halovatidan voz kechib, tinimsiz og‘ir mehnat qildi. Respublikamiz frontning mustahkam ta‘minot bazasiga aylandi. Yurtimizdan jang maydonlariga 2 mingdan ziyod samolyot, ko‘plab qurol-yarog‘lar, harbiy-sanitariya poezdlari, yuzlab dala oshxonalari, palatkalar, ulkan miqdorda oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa mahsulotlar yetkazib berildi.

Frontda janglarda qatnashgan harviylar bilan bir qatorda urush yillarida front bilan front ortini ruhiy jihatdan bog‘lab turuvchi omil hisoblangan gazeta va jurnallarda faoliyat ko‘rsatgan harbiy-muxbir va jurnalistlarni ham alohida qayd etish lozim. Chunki Ikkinchi jahon urushida Sovet ittifoqi tomonidan qatnashgan jangchilar orasida 943 nafar yozuvchi ham bor edi. Ulardan 225 tasi frontda halok bo‘lan bo‘lsa, 500 dan ortiq frontda janglarda qatnashgan jurnalist va yozuvchilar davlat mukofotlari bilan taqdirlanganlar[11].

MUHOKAMA

Urush davomida gazeta va jurnallar chop etish ishlari ham jadallashadi. 1942-yil oxiriga kelib 3 markaziy, 13 front va 60 ta armiya gazetalari chop etilgan bo‘lsa, 1943-yilga kelib armiya siyosiy boshqarmasi tomonidan 47 ta gazeta chiqarilardi. Bu paytga kelib o‘zbek va qozoq tillarida 11 tadan gazeta chop etilib bu ko‘rsatkich rus tilidan boshqa tillarda chop etiladigan gazetalar orasida birinchi o‘rinda edi. Ba‘zi manbalarda frontlarda o‘zbek tilida nashr etilgan gazetalar soni 14 ta ekanligi qayd etilgan. T.Ernazarov va A.I.Akbarovlar esa o‘z asarlarida o‘zbek tilida 13 ta front gazetasi, 3ta diviziya va 1 ta okrug gazetasi nashr etilgan deb yozishadi[3.217]. Umuman olib qaraganda, Ikkinchi jahon urushi frontlarida Sovet ittifoqi tomonidan hammasi bo‘lib 64 ta gazetalar chop etilgan. Ulardan 13 ta front gazetasi, 3 divizion va 1 okrug miqyosidagi gazeta o‘zbek tilida chop etilgan[ernazarov]. Ayrim manbalarda o‘zbek tilidagi front gazetalari soni 11 ta deb ko‘rsatiladi. Ma‘lumotlardagi chalkashliklar sababiga to‘xtaladigan bo‘lsak shuni asos qilib ko‘rsatish mumkinki, ayrim gazetalar bir necha marta nomini o‘zgartirgan [3.218].

Ikkinchi jahon urushi yillarida o‘zbek tilida chiqqan gazetalardan “Dushmanga qarshi olg‘a” gazetasi 1942-yil iyundan boshlab, avval Kalinin, 1943-yil 23-dekabrda esa 1-Boltiqlik bo‘yi frontida nashr etilgan. Gazetaning dastlabki bosh muharriri N.S. Kassin, 1943 yil 19 dekabrda M.M. Ramzin, muharrir o‘rinbosari X.Risqulov bo‘lgan. Gazeta haftada ikki marta – payshanba va yakshanba kunlari chop etilgan. Gazeta tahririyatida Vagiz Muzaffarov mas‘ul kotib, kapitan Abitoy Turumbetov (urushdan keyingi yillarda Qoraqalpog‘istonga qaytib kelgan va shu yerda yashab ijod qilgan hamda shoirlik faoliyatini davom ettirgan. 1971-yilda uning “Sho‘r ko‘l” nomli she‘rlar kitobi nashrdan chiqqan), Hoji Mahkamov, Saidmurod No‘monovlar adabiy xodim sifatida, gvariyachi mayor Malla Abdullaev, leytenant U.Raximov, A.Isoqov, kichik leytenant N.Shoymardonov, serjantlar Karim Sharipov, Boyniyoz Qambarov, oddiy askarlar Isoqjon Umarov, Rajab Otajonov, batalon targ‘ibotchisi Qosim Qayumovlar muxbir sifatida faoliyat olib borganlar

Gazetaning nomi 1945-yil 20-iyulda “Vatan uchun” deb o‘zgartirilgan va 1946-yil oktabr oyiga qadar Boltiqlik bo‘yi harbiy okrugi siyosiy boshqarmasi tomonidan nashr etilgan[3. 219].

XULOSA

Jangovar ruhni mustahkamlash, aholini safarbar etish va urushning ahamiyatini tushuntirishga xizmat qilgan. Jurnalistlar harbiy muxbirlar (voenkorlar) tarmog‘ini yaratib, voqealarni matnlar, foto- va kinoreportajlar, front nashrlari orqali yoritgan. Matbuot

qahramonliklar haqida xabar bergan, askarlar va tinch aholi bilan suhbatlar e‘lon qilgan, dushman obrazini demonizatsiya qilib, front va orqa front birligini mustahkamlagan. Bu jarayon davlat targ‘ibotining bir qismi bo‘lib, har bir material hokimiyat va davlatning kuchli obrazi shakllanishiga xizmat qilgan. Jurnalistlar hayotini xavf ostiga qo‘yib, targ‘ibot ruhidagi bo‘lsa-da, haqiqatni yetkazishga intilgan va xalqni g‘alabaga ruhlantirgan.

Xulosa qilib aytganda, Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekiston xalqi nafaqat jang maydonlarida, balki front ortida ham mislsiz matonat va fidoyilik ko‘rsatdi. O‘zbek tilidagi front gazetalarining nashr etilishi jangchilarning ruhiy holatini mustahkamlashda, g‘alabaga ishonchni oshirishda muhim omil bo‘ldi. Ushbu tarixiy tajriba bugungi kunda yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev SH. Bir bo‘lsak – yagona xalqmiz, birlashsak- Vatanmiz. 8-jild.- Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2024. – 344 b.

2. Эрназаров Т.Э., Акбаров А.И. История печати Узбекистана (1925-1952) – Ташкент: Укитувчи, 1997. – 288 с.

3. Узбекская ССР в годы Великой Отечественной войны (1941–1945 гг.) : В 3 т. Т. 2. / АН УзССР, Ин-т истории, Ин-т историипартии при ЦК КПУз ; [Редкол.: М. А. Ахунова и др.]. – Ташкент: Фан, 1983. – 288 с.

4. Шамсутдинов Р. Иккинчи жаҳон уруши ва фронт газеталари. Биринчи китоб Тошкент: Akademnashr, 2017. – 608 б.

5. Шамсутдинов Р. Иккинчи жаҳон уруши ва фронт газеталари. Иккинчи китоб Тошкент: Akademnashr, 2017. – 736 б

6. Шамсутдинов Р. Иккинчи жаҳон уруши ва фронт газеталари. Учтинчи китоб Тошкент: Akademnashr, 2017. – 448 б.

7. Шамсутдинов Р. Иккинчи жаҳон уруши ва фронт газеталари. Тўртинчи китоб Тошкент: Akademnashr, 2020. – 368 б.

8. Шамсутдинов Р. Иккинчи жаҳон уруши ва фронт газеталари. Бешинчи китоб Тошкент: Akademnashr, 2020. – 352 б.

9. Шамсутдинов Р., Фронт газеталарида муҳрланган жасоратлардан лавҳалар // Водийнома – 2020. №2 (17). – Б. 46 – 77.

10. <https://nelidovo.tverlib.ru/s-leykoy-i-bloknotom-voennye-korrespondenty-na-frontah-velikoy-otechestvennoy-voyny> Murojaat sanasi 21.02.2026